

## INNOVATIVE METHODS OF EFFECTIVE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN AGROBUSINESS DEVELOPMENT

A M Sherkulov

Master of the Department of Digital Economics, SamSU

+99893 996-46-26, a.sherkulov1993@gmail.com

### **Annotation:**

The article discusses the role of agribusiness in the agricultural industry, shows the advantages of using innovative digital technologies, describes the factors that hinder the process of informatization of the agro-industrial complex.

**Keywords:** Agribusiness, agro-industry, digital technologies, agriculture, informatization, digitalization, agro-firms.

Hozirgi kunda mamlakatni rivojlantirish qishloq xo'jaligisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligini esa agrobiznes bilan rivojlantirish mumkin. Shuning uchun ham har bir davlat o'z oldiga agrobiznesni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishgan. Shu nuqtai nazardan olib qarasak O'zbekistonni rivojlantirishda agrobiznesning ro'li beqiyos.

O'zbekiston agrosanoat majmuasi uchun burilish davrlaridan biri 1998 yil bo'lib, qishloq xo'jaligi sanoatni axborotlashtirish masalalarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmay qoldi. Shu paytdan boshlab qishloq xo'jaligi bozorining yirik ishtirokchilari davlatdan mustaqil ravishda o'zlarining axborot tuzilmalarini yaratishni boshladilar. Bu davlatning yirik agrobiznesni boshqarish vositalaridan mahrum bo'lishiga, agrosanoat majmuasini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligi pasayishiga va kichik ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatini kengaytirish imkoniyatlarini yo'qotishiga olib keldi.

2018 yil 26 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3680-sonli hamda 2019 yil 29 iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4406-sonli qarorlari orqali agrobiznesni va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qaratilgan kompleks chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Hozirda yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari va davlatlar siyosatiga ta'sir o'tkazishning eng kuchli usullaridan biriga aylandi. O'zbekistonda iqtisodiyot va uning tarmoqlarini

raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Bunday tadbirlarning maqsadi - axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari va tizimlarini o'z ichiga olgan ko'plab masalalar bo'yicha zamonaviy ma'lumotlar bazalari bilan yagona axborot makonini yaratish hisoblanadi. Agrobiznes birlashmalari – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir nechta xo'jalik hamda korxonalarining birlashmasidir. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi sex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalarini bir texnologik jarayonga birlashib agrobiznes birlashmalarini tashkil qiladi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun ham huquqiy, ham tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi. Buning natijasida 2014 yilda respublikada fermer xo'jaliklarini soni 38549 ta bo'lgan bo'lsa, 2020 yilda 92,6 mingtaga yetdi. Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jalik foydalanishidagi yerlar maydoni 4881,9 ming gektardan ko'proqni tashkil qilib, bir xo'jalik ixtiyoridagi yer maydoni 26,3 gektarga, har bir kishiga 3,49 gektarni tashkil etadi.

Agrobiznes faoliyatining maqsadi mavjud iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari:

- ish joylarini kengaytirish va ishchilarning ushbu sohadagi manfaatlarini qondirish;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yangiliklarni kiritish;
- agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining o'sishini ta'minlash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy barqarorligini oshirish;
- atrof-muhitni saqlash va ko'payishini ta'minlash, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.


Agrobiznesning asosiy shakli va bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir. Chunki bu xo'jaliklar bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Fermer va dehqon xo'jaliklar o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanishlari ham mumkin.

O'zbekistonda xo'jalik toifalari bo'yicha yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarilishini chizmada tasvirlash mumkin.

1-jadval

T/r	Xo'jaliklar	Yillar					
		Foizlarda (%)					
		2014	2015	2016	2017	2018	2019
1	Qishloq xo'jalik korxonalari	2,4	2,4	2,3	2,3	2,8	3,0
2	Dehqon xo'jaliklari	67,5	66,9	68,0	68,4	71,2	70,1
3	Fermer xo'jaliklari	30,1	30,7	29,7	29,3	26,0	26,9

O'zbekistonda xo'jalik toifalari bo'yicha yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarilishi (ulushi), foiz hisobida



2-jadval

Respublikada fermer xo'jaliklari samarali ishlash uchun zarur xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma – agrofimlar, mashina-traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar tizimi, aholiga xizmat qiluvchi ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash va boshqa maqsadlarda ham infratuzilmalarga e'tibor berilmoqda. Birgina 2019 yili qishloq joylarda 3,6 ming kilometrdan ortiq suv quvurlari va 710 kilometr gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash shaharlarda 84 % ga, qishloq joylarida 77 % ga yetdi. Shuningdek tabiiy gaz bilan ta'minlanish shaharlarda 82 %, qishloqlarda 71 % gacha ko'paydi.



Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaliklaridan to'lig'icha kengroq foydalanib agrobiznesni rivojlantirish mumkinligi ko'rsatilib o'tildi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi bugungi kunda qishloq xo'jaligida agrobiznesni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni yo'lga qo'yilib borilmoqda.

Albatta, yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar ro'yxati yetarlicha keng qamrovli ko'rinishi mumkin. Biroq ularning yechimlari to'la hayotiy bo'lib, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishni tezlashtirish hamda raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek mamlakat iqtisodiyotidagi agrobiznesning tarkibiy o'zgarishlar uchun o'ta muhim.

Ayni vaqtda ishlab chiqilayotgan 2019-2030 yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish milliy strategiyasi mazkur sohada Jahon banki guruhi hamda boshqa xalqaro hamkorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishga tayyor bo'lgan islohotlarni amalga oshirish uchun asosiy hujjatga aylanishi lozim. Uning qabul qilinishi va keyinchalik hukumat tomonidan amalga oshirilishi yuqorida tilga olingan vazifalarni mamlakatni rivojlantirish va O'zbekiston xalqi farovonligini oshirish uchun iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirishga zamin yaratadi. Agrobiznesni rivojlantirishda innovatsion usullarini joriy etish orqali qishloq xo'jalik korxonalarini shart-sharoitlarini o'rganish, usullarini joriy etish biz kabi mutaxassislarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha quyidagi takliflar amaliyotga tadbiiq etilsa, agrobiznesni rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligini ham rivojlantiramiz.

- Fermerlar o'zlarining yerga bo'lgan huquqi daxlsiz ekaniga to'liq ishonmas ekan, ular mehnat samaradorligini oshirish hamda mahalliy hokimiyat foydalanishga taqdim etilgan yerlar hosildorligini yaxshilashga sarmoya kiritmaydi.
- Fermer xo'jaliklari faoliyatini nazorat qilishning ushbu eskirgan tizimi ularning rivojlanishlari uchun halokatli darajada zararli bo'lib, fermerlarning mahalliy hokimiyatlardan foydalanish uchun olgan yerlarga sarmoya kiritishga bo'lgan rag'batini so'ndiradi. Bugungi kunda davlat tomonidan mahsuldorlikka qarshi xizmat qilayotgan mazkur amaliyotdan voz kechish zarur.
- Mamlakatimiz bug'doy va paxta uchun davlat narxining pastligi hisobiga fermerlarni soliqqa tortishni bekor qilish orqali davlat xarajatlarining samaradorligini tezda oshirishi mumkin. O'zbekiston asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ichki narxlar xalqaro darajadan past bo'lgan dunyodagi kam sonli mamlakatlardan biri sanaladi.
- Mazkur davlatga uzoq muddatli istiqbolga ega tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan byudjet harajatlarini kamaytirish uchun qisqa va o'rta muddatli istiqbolga ega qishloq xo'jaligini davlat

tomonidan moliyalashtirish hajmini oshirish kerak. Bunda asosiy e'tiborni byudjet mablag'larini o'zlashtirish va ulardan foydalanish samaradorligiga qaratish zarur.

• Agar dehqon xo'jaliklarining ehtiyojlariga e'tibor qaratilmasa, qishloq xo'jaligi eksporti faqat kichik fermerlar va agrotashkilot guruhlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi va mazkur fermerlar guruhining inklyuziv iqtisodiy rivojlanishi uchun ajoyib imkoniyat qo'ldan boy beriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Ismoilov A.Q., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent, Moliya, 2015 y
2. Qudratov T. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Ma'rular kursi. Samarqand-2017 y.
3. "Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish va agrobiznesni takomillashtirish yo'llari" "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil, 9-fevral.
4. O'zbekiston Respublikasini 2019-2030 yillardagi davrida qishloq xo'jaligi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi, 2019 y.